

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.I.Nosirova, L.A.Ernazarova	
Nasriy matnlardagi sintaktik-stilistik figuralarning pragmatik jihatlari	212
O.I.Yadgarova	
Shaxsni o'rganishda proyektiv metodikalarning afzalliklari tahlili	216
O.M.Xalimova, A.A.Xusanov	
Ovoz buzilishlari: ovoz buzilishlarini turlari va kelib chiqish sabablari	221
D.X.Turdiboev	
O'quvchilarning matematik savodxonligini oshirishda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini ahamiyatlilik darajasi	224
Sh.D.Ismoilov	
O'smir yoshdagi o'g'il bolalarni hayotga tayyorlash kompetensiyasini shakllantirishning tamoyillari	227
S.A.Yaxyayeva	
Yoshlarda estetik madaniyatni rivojlantirishning tarixiy zaruriyati va mafkuraviy asoslari	231
B.B.Nizomova, O.T.Sobirov, G.G'.Xomidova	
Maktab 7-sinf biologiya darsligidagi "Bakteriyalar. Protistalar. Zamburug'lar" mavzusida tabiiy fanlar integratsiyasini ta'limdagi ahamiyati	236
G'.B.Samatov.S.Mo'minjonov	
Ikki atomli gazlarda tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligini hisoblash	248
X.R.Saidova	
Ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmlari	254
J.B.Hamraqulov	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari	259
Sh.H.Yusupaliyeva	
Texnik oliy o'quv yurtlarida chet til darslarini tashkillashtirishda o'g'zaki nutq kompetensiyasini samarali qo'llash usullari	263
X.R.Umarov	
O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida	266
X.M.Madazimov	
Bir hikoya talqinida bosh qahramon qiyofasi	274
B.T.Yunusaliyev	
Modus kategoriyasining modallilikni o'rganishdagi ahamiyati.	277
K.I.Qosimov	
Abdulla Qodiriy – XX asr geniysi	280
M.A.Xusanova, M.A.Xusanova	
Somatik kodlar tadqiqiga doir	287
M.O.Rahimova	
O'zbek tilida leksik nomemalar	290
N.S.Qobilova, M.T.Hojiyeva	
Umumiy taqiqlovchilar va ularning komponentlari	293
A.M.Rasulova	
To'siqsizlik munosabatining jahon tilshunosligida o'rganilishi	297
Z.V.Alimova, U.A.Soxibova	
Frazeologik birliklar va ularning semantik tahlili	300
I.I.Akramov	
Aforizmlarni pragmatik tushunish aspektlari	305
B.A.Yunusova	
Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy asosi	310
Z.H.Usmonova	
Rey Bredberining "Marsga Hujum" ("the martian chronicles") asari bilvosita tarjimasida tarjima usullari va o'ziga xos xususiyatlari	315
A.M.Mamarasulov	
Osmon va yer tushunchalarining qiyosiy semantik tadqiqi	319
L.X.Badalova	
Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda storytelling yondashuvining ahamiyati	322

SO'Z O'ZLASHTIRISH HODISASI TALQINI VA UNING TIL LUG'AT TARKIBI BOYISHIDAGI O'RNI

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФЕНОМЕНА СЛОВООБРАЗОВАНИЯ И ЕГО РОЛЬ В ОБОГАЩЕНИИ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА ЯЗЫКА

INTERPRETATION OF THE PHENOMENON OF WORD ACQUISITION AND ITS ROLE IN THE ENRICHMENT OF LANGUAGE VOCABULARY

Ehsanova Muqaddamxon Ibrohimovna¹, Salimova Nigina Bahtiyorovna²,
Yulchiyeva Mubinabonu Alinazar qizi³

¹Ehsanova Muqaddamxon Ibrohimovna

– KIUF o'qituvchisi

²Salimova Nigina Bahtiyorovna,

– KIUF o'qituvchisi

³Yulchiyeva Mubinabonu Alinazar qizi

– Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya

Maqolada so'z o'zlashirish hodisasining til leksikasini boyitishdagi o'rni haqida fikr yuritilgan. O'zlashmalarning arab, fors-tojik, rus va boshqa tillardan o'tganligi, qanday omillar orqali kirib kelganligi haqida fikrlar bayon etilgan. Atoqli olimlarning so'z o'zlashtirish haqidagi fikrlariga munosabat bildirilgan. So'z o'zlashtirish jarayonining til uslublari bilan aloqasi tahlilga tortilgan. O'zlashma so'zlarning xususiyatlari orqali xalqimizning boshqa tillar egalari bo'lgan xalqlar bilan hamkorlik aloqalarining chuqur kechganligini ko'rsatib berilgan. O'zbek tili lug'at tarkiga fors-tojik tilidan, arab, rus tilidan tashqari mo'g'ul va xitoy tillaridan ham so'zlar qabul qilingani aytib o'tilgan. Shuningdek, qaysi davrda, qanday omillar orqali so'z o'zlashganligi atroflicha yoritilgan. Har bir tildagi so'zlarning o'ziga xos belgilari mavjud ekanligi misollar orqali qayd etilgan.

Аннотация

В статье обсуждается роль словообразования в обогащении словарного запаса языка. Высказываются мнения о переносе заимствований из арабского, персидско-таджикского, русского и других языков и через какие факторы они поступили. Высказываются мнения известных ученых о словообразовании. Анализируется взаимосвязь между процессом усвоения слов и языковыми стилями. Через свойства родных слов показано, что сотрудничество нашего народа с народами других языков глубоко. Было отмечено, что в словарь узбекского языка включены также слова из персидско-таджикского, арабского, русского, монгольского и китайского языков. Также подробно освещено, в какой период и благодаря каким факторам слово было приобретено. На примерах отмечено, что слова в каждом языке имеют свои знаки.

Abstract

The article discusses the role of word acquisition in enriching the language lexicon. Opinions are expressed about the transfer of the borrowings from Arabic, Persian-Tajik, Russian and other languages, and through what factors they entered. Opinions of famous scientists about word acquisition are expressed. The relationship between the word acquisition process and language styles is analyzed. Through the properties of native words, it is shown that the cooperation of our people with the peoples of other languages is deep. It was mentioned that words from the Persian-Tajik language, Arabic, Russian, Mongolian and Chinese were also included in the Uzbek language dictionary. Also, in what period and through what factors the word was acquired, it is covered in detail. It is noted through examples that words in each language have their own signs.

Kalit so'zlar: o'zlashma so'zlar, til uslublari, so'z o'zlashtirish, uzuallik, leksika.

Ключевые слова: заимствованные слова, языковые стили, словоупотребление, единство, лексика.

Key words: borrowed words, language styles, word acquisition, unity, lexicon.

KIRISH

Turkiy tillar o'zining uzoq asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida o'ziga qarindosh tillardan ham, qarindosh bo'lmagan boshqa til oilalariga mansub tillardan ham so'zlarni o'zlashtirgan. O'z navbatida, turkiy tillardan bir-biriga hamda boshqa til oilasiga kiradigan tillarga ham bir qancha so'zlar olingan.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR

Agar o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlarning o'zlashish manbalari – manba tillarini aniqlashtiradigan bo'lsak, avvalo, o'zlashmalarning ko'pchiligi arab, fors-tojik, rus, ingliz va boshqa tillar o'tganligi ma'lum bo'ladi.

O'zlashma so'zlarning bunday xususiyati xalqimizning mazkur tillar egalari bo'lgan xalqlar bilan hamkorlik aloqalarining chuqur kechganligini ko'rsatib beradi. Shuni unutmash kerakki, arab

va fors-tojik xalqlari bilan aloqalar tilimizning ancha oldingi bosqichlarida boshlangan. O'zbek tilining tarixiy davrlariga xos bo'lgan va bugun ham mavjud o'zlashma so'zlari haqida "O'zbek tili leksikologiyasi"ning o'zlashma qatlam so'zlariga bag'ishlangan qismida shunday deyiladi: "O'zbek tilida hozirda mavjud va qo'llanishda bo'lgan barcha so'zlar, grammatik vositalar bu tilning o'ziniki, uning o'z boyligidir. Ammo bu leksik boylik o'zbek tilida birdan yuzaga kelgan emas. O'zbek tili lug'at sostavi murakkab rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirgan. Ilk davrlarda u turkiy qabila tillari va ba'zi qadimiy chet tillarning ayrim leksik elementlarini o'zida birlashtirgan holatda bo'lgan bo'lsa, keyinchalik o'zbek tili lug'at sostaviga fors-tojik tilidan, arab tilidan, mo'g'ul va xitoy tillaridan so'zlar qabul qilingan" [1, 55].

Ma'lumki, o'zbek xalqi qadim davrlardan buyon tojik xalqi bilan yonma-yon, qo'shni bo'lib yashab keladi. Bu xalqlar bir-biri bilan azal-azaldan savdo-sotiq, ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalarda o'zaro hamkorlik qiladi. Qadimshunos olim Karim Shoniyozov bu haqda quyidagilarni yozadi: "IX–X asrlarda Markaziy Osiyo hududlarining etnik tarkibi bir tekisda bo'lmagan. Tilga olingan viloyatlar aholisining katta qismi turkiyzabon xalqlar bo'lgan. Vohalarda turkiy xalqlar bilan yonma-yon, ko'p hollarda aralashib tojik xalqi ham yashagan[2, 189-190]". Shuning uchun ham o'zbek tilida tojikcha so'zlar, tojik tilida o'zbekcha yoki turkiycha so'zlar ko'plab uchraydi. Tadqiqotimiz davomida 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni ko'rib chiqishimiz asnosida shuni aniqladiki, ushbu izohli lug'atdagi dil- va gul- komponentli so'zlar o'zbek tiliga fors-tojik tilidan qabul qilingan faol leksik birliklardan ekanligi ma'lum bo'ldi. Mumtoz adabiy asarlarimiz orqali o'zlashgan ko'plab fors-tojikcha so'zlar hozirgi o'zbek tiliga ham yetib kelgan, shuningdek, aynan mumtoz adabiy asarlarimizda faol qo'llanganligi bilan ajralib turadi.

Bunga qo'shimcha qilib shuni keltirib o'tish lozimki, arablar istilosidan keyin Movarounnahr va Xurosonda arab xalifaligiga xos tuzum, ish tartibi o'rnatildi. Buning natijasida hududiy bo'linish nomlari, lavozimlar nomi arabcha so'zlar bilan atala boshlangan. Masalan, viloyat, amir, umaro, vazir, muhtasib, muftiy, qozi, munshiy, devonbegi, amiralmominin kabilar.

Ma'lumki, har bir tildagi so'zlarning o'ziga xos belgilari bo'ladi. Masalan, so'zlarning qator undoshlar bilan tugashi, odatda, fors-tojikcha so'zlarga xos xususiyatdir. Bu holatni daraxt, karaxt, barg, mard singari so'zlarda ko'rish mumkin. Umuman olganda, tojik tilidan so'z o'zlashtirish jarayonlari tilimizning qadimgi davrlaridan boshlab davom etib kelgan.

A.Nurmonov va hammualliflari so'z o'zlashtirish jarayonining muqarrarligini quyidagicha ifodalaydi: "Dunyoda boshqa tillardan so'z olmasdan, faqat o'z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta ham til yo'q. Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Faqat ma'lum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi o'z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo'lmagandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir" [3, 206].

N.Mahmudov so'z o'zlashtirish masalasining ushbu tomonini o'zining maqolasida shunday ifodalaydi: "Bugungi jadal globallashuv jarayonlarida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji misli ko'rilmagan ko'lamlarni qamragan bir davrda bir tildan boshqasiga so'z o'tmasligini tasavvur etishning o'zi mushkul. Turli davlatlar bir-biri bilan xilma-xil sohalarda "olish-berish" munosabatida bo'lar ekan, bu davlatlardagi tillar ham mazkur munosabatlardan chetda qolmaydi, tillar ham o'zaro "olish-berish" munosabatidan qochib qutulolmaydi. Bu bugungi dunyoning inkor etib bo'lmaydigan lisoniy-mantiqiy haqiqatlaridandir" [4, 153].

So'z o'zlashtirish tabiiy jarayon bo'lishi bilan birga, har bir davlatda bu jarayon tartibga solinib, boshqarilib turishi ham kerak. Aks holda, keraksiz, modaga ergashib so'z qabul qilish boshlanib ketadi va jamiyat a'zolari tomonidan haqli e'tirozlarga sabab bo'ladi. Dunyodagi ko'plab davlatlarda til masalasining mana shu tomonini tartibga solib turadigan muassasa va tashkilotlar tashkil etilgan, alohida qonun-qoidalar ishlab chiqilgan. Masalan, Isroilning Irvit tili akademiyasi, Fransiyaning "Tubon" qonunlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasida Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqei va nufuzini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilgan. Davlat tilini rivojlantirish departamenti qoshida esa o'zlashma terminlarni tartibga solish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadigan Atamalar komissiyasi tuzilgan.

Aslini olib qaraganda, so'z o'zlashtirish jarayoni shunchaki bir so'zni boshqa xalq tilidan olib kirishgina emas, balki so'z o'zlashtirish natijasida yangi tushuncha ham o'zlashishi demakdir.

So'z o'zlashtirish muammosi til uslublari bilan ham bog'liqdir. Til uslublarning ayrimlari hamisha so'z o'zlashtirish jarayonlariga duch keladi. Bu jarayonda o'zlashma so'z ham, chet so'z

ILMIY AXBOROT

ham ishtirok etadi. Publisistik uslub shunday uslublardan bo'lib, o'zlashma qatlamga doir til birliklari birinchi o'rinda shu uslubda qo'llanishni boshlaydi. Qaysidir ma'noda yangi so'zning tilga o'rnashib ketishi ham publisistik uslubda bo'ladi. Publisistik uslubning o'zlashtirilayotgan so'zlar bilan bo'ladigan munosabati haqida Y.Odilov quyidagilarni yozadi: "...Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, bank-moliya, ta'lim-tarbiya, tibbiyot va boshqa ko'plab sohalarga oid diller, menejment, konsalting, kredit, lizing, ipoteka, kollej, bakalavr, magistr, onlayn, moderator, mediakonferensiya, mediamadaniyat, patronaj kabi o'zlashma va yasalmalar o'zbek tiliga publisistik matnlar orqali kirib kelgan, shu uslubda qayta-qayta qo'llanilishi natijasida xalq tiliga kirib borib, uzuallik kasb etgan.

Demak, tilda kechayotgan leksik-semantik o'zgarishlar uning vazifaviy uslublarida, birinchi navbatda, publisistik uslubda aks etadi. Publisistik uslubga xos matnlar auditoriyasining kengligi hamda davriyligi tufayli yangi o'zlashmalar, faollashgan so'z va sintaktik tuzilmalar tilda barqarorlashgan" [5, 37]. Ma'lum bo'lishicha, yangi so'zning keyingi qo'llanishi publisistik uslubdan boshlanadi, agar publisistik uslubda o'z o'rnini topa olsa, keyin boshqa uslublarga ko'chib o'tadi. Publisistik uslub ma'lum ma'noda tajriba maydoni vazifasini bajaradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mazkur xildagi olinma so'zlarni tartibga solish kerak bo'ladi, chunki bu jarayonda o'zlashma so'zni shunday osongina qabul qilib qo'yish bilan ish bitmaydi. Tilshunoslar, jurnalistlar va boshqa fan sohalari vakillari har bir xorijiy so'zni matnga olib kirishdan avval "o'zbek tilida muqobili yo'qmikan?" degan o'y-fikrdan o'tishi kerak hamda birinchi navbatda, o'zbek tilidagi muqobilini izlash zarur bo'ladi. Tilshunoslikka doir ishlarda yangi davrga xos o'zlashma so'zlar hali ilmiy o'rganilmagan. Tilshunoslarning vazifasi imkon qadar tilning ichki imkoniyatlarini ishga solib, o'zlashmalarning muqobillarini topib, xorijiy so'zlarni tartibga solish yuzasidan tavsiyalar berishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO'YXARI

1. Mualliflar jamoasi. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B.55. (1. A authors team. Lexicology of Uzbek language. – Tashkent: Science, 1981. – P.55.)
2. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.189–190. (Shanoyozov K. The formation process of the Uzbek nation. – Tashkent: Sharq, 2001. – P.189-190.)
3. Nurmonov A va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning I, II, III bosqich talabalar uchun darslik. Qayta ishlangan 3-nashri. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2015. – B.206. (Nurmonov A and others. Modern Uzbek literary language. Textbook for I, II, III level students of academic lyceums and vocational colleges. Revised 3rd edition. – Tashkent: Ilm-Ziya, 2015. – P.206.)
4. Mahmudov N. So'z o'zlashtirishda me'yor va milliylik / Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. – B.153. (Mahmudov N. Norms and nationality in word acquisition / Linguistic research. – Tashkent: Mumtoz Soz, 2017. – P.153.)
5. Odilov Yo. Publitsistik matnlardagi lisoniy o'zgarishlar // Til va adabiyot ta'limi, 2017. – №8. – B.37. (Odilov yo. Liatic changes in public texts // Language and literature education, 2017 – №8. – P.37.)